

iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molinining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molinining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxona tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Ta'minotchi korxona iste'molchilar bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini xisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini xisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko'rishi kerak. "Iste'molchi" tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida "Ta'minotchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan xisobot yuridik shaxslar xamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan tizimi (EHNAT) ning joriy etilishi munosabati bilan iste'molchilarining xisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

"Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning shaxsiy xisob-raqam va xisobga olish priborlarining xolati xaqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. *SHartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi ja'mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.*

"Iste'molchi"ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuqningdek, noqonuniy foydalilanigan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda etkazib beriladigan korxonalar